

yondashuv asosida Prezident yoki Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadigan alohida dastur qabul qilish. Dasturda:

mahkumlarni ozodlikda to'g'ri hayot yo'lini topib ketishlari hamda ularga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish borasidagi ishlarga daxldor davlat idoralarining ozodlikdan mahrum etish joylariga kelishini ta'minlash hamda ular tomonidan mahkumlar muammolarini o'rganib hal etish choralari ko'ra boshlashlari bo'yicha aniq hamkorlik mexanizmini ko'rsatish;

mahkumlarni ozod bo'lishidan oldin axloqan tuzatish va qayta jinoyat sodir etmasligiga erishish borasida o'tkaziladigan kompleks tarbiyaviy chora-tadbirlarni belgilash;

yosh mahkumlarni tarbiyalash va axloqan tuzatish, ularning Vatanparvarligini oshirish ishlarini kuchaytirish maqsadida har bir muassasada pedagog-tarbiyachi lavozimlarini joriy etish;

mahkumlar tarbiyasi bilan shug'ullanadigan xodimlarning faoliyatini samarali tashkil etish va ularning ijtimoiy himoyasini oshirish, xizmat yilini pedagogik stajga kiritish;

manzil-koloniylarida mahkumlar tarbiyasi bilan bevosita shug'ullanuvchi katta inspektor-ijtimoiy xodim lavozimini ofitserlik lavozimiga o'zgartirish.

7. Mahkumlarni tuzalish yo'liga o'tgan yoki o'tmaganligini aniqlash bo'yicha Jinoyat-ijroiya kodeksida mezonlar belgilangan bo'lsa-da, biroq uni aniqlashning metodikasi mavjud emas. Ushbu muammoni samarali yechimiga erishishda yetakchi olimlar, amaliyot xodimlari, pedagog va psixologlarni jalb etish, shu jumladan chet el tajribasini o'rganish muhimligini inobatga olib, fundamental ilmiy tadqiqot o'tkazish.

Xulosa qilib aytganda, jinoiy jazoning samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish jinoyatchilikka qarshi kurashishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Samarali jazo siyosati nafaqat jinoyat uchun javobgarlikni ta'minlaydi, balki shaxsni tuzatish, uni jamiyatga qayta moslashtirish va yangi jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bois, jazo tizimini insonparvarlik, adolat va profilaktika tamoyillari asosida takomillash-tirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslangan strategiya tarbiyalash va jamiyatni sog'lomlashtirish vositasiga aylanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar / References

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – 232-b.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 7-moddasi. <https://www.lex.uz/acts/111453>
3. Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimidagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari. https://ipkmvd.uz/media/pdf/kitoblar/11-_toplam_xuquqbuzarlik_lar_profilaktikasi.pdf
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining jinoyat huquqi. – Toshkent, 2020. <https://library.tsul.uz/uz/books/24661>
5. BMTning mahkumlar bilan munosabat bo'yicha minimal standart qoidalar (Nelson Mandela qoidalar), 74-qoida. <https://lex.uz/docs/7352133>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/8050769>

HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY SUN'IY INTELLEKT PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH ZARURATI



Mirzatillayev Umid Izzatillayevich

O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot instituti,
bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar
bo'yicha falsafa doktori

Исследовательский институт
криминологии Республики
Узбекистан, главный научный
сотрудник, доктор философии
по юридическим наукам

Research Institute of
Criminology of the Republic of
Uzbekistan, Chief Researcher,
Doctor of Philosophy in Law

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda milliy sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish zarurati ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan ilmiy-amaliy tadqiqot loyihasi doirasida ishlab chiqilayotgan "Criminology AI" milliy sun'iy intellekt platformasi jamoat xavfsizligini ta'minlashning innovatsion vositasi sifatida asoslangan. Maqolada ushbu platformaning jamoat xavfsizligini mustahkamlashdagi ahamiyati yoritilib, ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat xavfsizligi, sun'iy intellekt, "Criminology AI", milliy sun'iy intellekt platformasi, kriminologik tahlil, jinoyatchilikni prognoz qilish, raqamli kriminologiya, manzilli profilaktika, jamoat tartibi.

THE NECESSITY OF USING NATIONAL ARTIFICIAL INTELLIGENCE PLATFORMS IN CRIME PREVENTION AND ENSURING PUBLIC SAFETY

Abstract. This article provides a scientific and practical analysis of the necessity of using national artificial intelligence platforms in crime prevention and ensuring public safety. It substantiates the "Criminology AI" national artificial intelligence platform – being developed by the Criminology Research Institute of the Republic of Uzbekistan as part of a scientific and practical research project – as an innovative tool for ensuring public safety. The article highlights the significance of this platform in strengthening public safety and formulates scientific and practical conclusions.

Keywords: crime prevention, public safety, artificial intelligence, "Criminology AI," national artificial intelligence platform, criminological analysis, crime forecasting, digital criminology, targeted prevention, public order.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati va kriminologiya fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning zamonaviy ko'rinishlari tobora murakkablashib, ular an'anaviy ijtimoiy-huquqiy omillar bilan bir qatorda raqamli muhit, axborot texnologiyalari, urbanizatsiya, migratsiya, ishsizlik, oilaviy-maishiy nizolar, yoshlar bandligi, mahalla infratuzilmasi va hududiy kriminogen vaziyat bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'lmoqda [1].

O'zbekiston sharoitida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi izchil rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, amaliyotda mavjud tahliliy mexanizmlar ko'p hollarda sodir etilgan jinoyat yoki huquqbuzarliklar bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni umumlashtirish, hududlar kesimida solishtirish

va o'tgan davr bilan taqqoslashga asoslanadi. Albatta, bunday yondashuv jinoyatchilikning umumiy holatini baholashda muhim ahamiyatga ega, biroq u huquqbuzarlikka olib keluvchi sabab va sharoitlarni real vaqtga yaqin rejimda aniqlash, jinoyat o'choqlarini oldindan belgilash, kuch va vositalarini barvaqt taqsimlash, shuningdek, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi holatlarni barvaqt prognoz qilish imkoniyatini to'liq ta'minlab bera olmayapti.

Shu nuqtai nazardan, huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda milliy sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish zamonaviy profilaktika faoliyatining muhim yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Sun'iy intellekt (artificial intelligence – AI) texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, ulardagi yashirin bog'liqliklarni aniqlash, xavf omillarini guruhlash, hududiy kriminogen vaziyatni baholash va ehtimoliy xavflar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa huquqbuzarliklar profilaktikasida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven governance – dalillarga tayangan boshqaruv) madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi [2].

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan ilmiy-amaliy tadqiqot loyihasi doirasida "Criminology AI" milliy sun'iy intellekt platformasi ishlab chiqilmoqda. Mazkur platformani 2026-yil noyabr oyida yakunlash rejalashtirilgan bo'lib, u sodir etilgan jinoyatlar va huquqbuzarliklarning sabab hamda sharoitlarini raqamli ma'lumotlar asosida tahlil qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklar tendensiyasini prognoz qilish hamda profilaktik choratadbirlarni manzilli belgilashga xizmat qiluvchi milliy intellektual tizim sifatida shakllantirilmoqda.

Mazkur maqolani tayyorlashda huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda milliy sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish zaruratini ilmiy-amaliy jihatdan asoslashga xizmat qiluvchi kompleks metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Maqolada *tizimli tahlil, kriminologik tahlil, qiyosiy-tahliliy, statistik tahlil*, shuningdek *ekspert baholash metodlaridan* keng foydalanildi.

Umuman olganda, mazkur maqolada qo'llanilgan metodlar huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda milliy sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish zaruratini har tomonlama asoslashga yo'naltirilgan [3]. Tizimli, kriminologik, statistik, qiyosiy, texnologik, ekspert va etik-huquqiy yondashuvlarning uyg'unligi "Criminology AI" platformasini O'zbekiston sharoitida jamoat xavfsizligini ta'minlash, kriminogen xavflarni barvaqt aniqlash va profilaktik qarorlar qabul qilishga ko'maklashuvchi istiqbolli ilmiy-amaliy model sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda milliy sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish zarurati bir nechta muhim omillar bilan belgilanadi. Avvalo, zamonaviy huquqbuzarliklar va jinoyatlar tarkibi, sodir etilish usullari, hududiy o'ziga xosliklari hamda ijtimoiy xavflilik darajasi tez o'zgarib bormoqda. Bunday sharoitda an'anaviy statistik tahlil, davriy hisobotlar va umumiy profilaktik tadbirlar jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi omillarni oldindan aniqlash uchun yetarli bo'lmay qolmoqda. Shu sababli huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini raqamli ma'lumotlar, prognozli tahlil va sun'iy intellekt imkoniyatlari bilan boyitish zarurati yuzaga kelmoqda.

Milliy sun'iy intellekt platformalariga ehtiyojni belgilovchi omillar. *Birinchidan*, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning ayrim turlari qisqa muddat ichida keskin o'zgarishi mumkin. Ayniqsa, kiberjinoyatlar, internet firibgarligi, jamoat joylarida sodir etiladigan bezorilik, yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar, oilaviy-maishiy nizolar, transport infratuzilmasi bilan bog'liq xavflar va aholining zich joylashgan hududlaridagi kriminogen holatlar tezkor monitoringni talab qiladi [8].

Ikkinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlashda resurslarni to'g'ri taqsimlash masalasi dolzarbdir. Profilaktika inspektorlari, patrul-post xizmati, "mahalla yettiligi", tahliliy bo'linmalar va

boshqa subyektlarning imkoniyatlari cheklangan sharoitda ularni eng xavfli hududlarga, eng dolzarb huquqbuzarlik turlariga va eng muhim ijtimoiy guruhlariga yo'naltirish zarur. Sun'iy intellekt platformasi aynan qaysi hududda, qaysi vaqtda, qaysi turdagi huquqbuzarlik xavfi ortayotganini aniqlash orqali profilaktika kuchlarini oqilona boshqarish imkonini beradi.

"Criminology AI" platformasining konseptual natijasi. Mazkur platformaning birinchi muhim natijasi – *kriminogen ma'lumotlar bazasini shakllantirish*. Ushbu baza jinoyat va huquqbuzarliklar statistikasi, hududiy kriminogen vaziyat, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar, mahalla darajasidagi jinoyat omillari hamda boshqa ma'lumotlarni yagona tizimga birlashtirish imkonini beradi. Natijada jamoat xavfsizligiga oid qarorlar alohida-alohida axborotlarga emas, balki kompleks ma'lumotlar majmuasiga tayangan holda qabul qilinadi [4].

Ikkinchi natija – *xavf omillarini avtomatik aniqlash* imkoniyati. "Criminology AI" huquqbuzarliklar sodir bo'lishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy, hududiy, shaxsiy, iqtisodiy, infratuzilmaviy va vaqtga bog'liq omillarni aniqlaydi. Masalan, muayyan hududda yoshlar bandligining pastligi, tungi yoritishning yetarli emasligi, avvalgi huquqbuzarliklar ko'pligi, spirtli ichimlik savdosi obyektlari zichligi, jamoat joylarida nazorat sustligi yoki oilaviy-maishiy nizolar ortishi xavfni kuchaytiruvchi omillar sifatida ko'rsatilishi mumkin [9].

Uchinchi natija – *hududiy xavf xaritalarini shakllantirish*. Platforma geografik axborot tizimi asosida mahalla, tuman, shahar yoki aniq obyektlar kesimida kriminogen xavf darajasini aks ettirishi mumkin. Bunday xaritalar profilaktika inspektorlari, hududiy ichki ishlar organlari va mahalla tizimi uchun qaysi joylarda nazoratni kuchaytirish, qaysi hududlarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini faollashtirish, qaysi obyektlar atrofida xavfsizlik choralari ko'rish zarurligini aniqlashda yordam beradi [7].

Jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi amaliy imkoniyatlar. "Criminology AI" platformasidan jamoat xavfsizligini ta'minlashda bir nechta amaliy yo'nalishda foydalanilishi mumkin.

Birinchi yo'nalish – *mahallalar kesimida xavfsizlik monitoringi*. Mahalla O'zbekiston huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Platforma mahalladagi huquqbuzarliklar dinamikasi, ijtimoiy muammolar, notinch oilalar, ishsiz yoshlar, jamoat joylari, nizoli vaziyatlar va infratuzilmaviy kamchiliklarni umumlashtirib, profilaktika inspektori va mahalla mas'ullariga xavf darajasini ko'rsatishi mumkin [10].

Ikkinchi yo'nalish – *jamoat joylarida xavf omillarini baholash*. Bozorlar, savdo markazlari, transport bekatlari, ko'ngilochar maskanlar, istirohat bog'lari, ta'lim muassasalari atrofidagi hududlar ko'p sonli aholining harakatlanishi bilan bog'liq bo'lgani sababli, u yerda huquqbuzarlik xavfi yuqori bo'lishi mumkin. Platforma bunday hududlarda takroriy holatlar, vaqtga bog'liq xavflar va mavsumiy o'zgarishlarni tahlil qilib, xavfsizlik choralari oldindan belgilashga yordam beradi [11].

Uchinchi yo'nalish – *profilaktika inspektorlari faoliyatini tahliliy qo'llab-quvvatlash*. Har bir profilaktika inspektori o'z hududidagi real xavf omillarini aniq bilishi, qaysi oilalar, qaysi yosh guruhlari, qaysi obyektlar yoki qaysi ko'chalar profilaktik e'tiborni talab qilishini ko'ra olishi kerak. "Criminology AI" profilaktika inspektoriga katta hajmdagi ma'lumotlar orasidan eng muhim xavf signallarini ajratib beradi [12].

To'rtinchi yo'nalish – *tezkor ogohlantirish tizimi*. Agar muayyan hududda ma'lum turdagi huquqbuzarlik yoki jinoyatning keskin ortish xavfi aniqlansa, platforma mas'ul subyektlarga avtomatik ogohlantirish yuborishi mumkin. Bu ogohlantirishlar profilaktika tadbirlarini kechiktirmasdan boshlash, kuch va vositalarni tezkor safarbar qilish va xavfli holatlarning oldini olish imkonini beradi [6].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda milliy sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish masalasi faqat texnologik yangilik sifatida emas, balki huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan strategik yondashuv sifatida baholanishi lozim. Chunki zamonaviy huquqbuzarlik ko'p omilli, tez o'zgaruvchan va hududiy xususiyatlarga ega bo'lib, ularni faqat statistik hisobot yoki an'anaviy kuzatuvlar orqali to'liq baholash qiyin. Shu bois "Criminology AI" platformasi huquqbuzarliklar profilaktikasini reaktiv boshqaruvdan proaktiv, ya'ni xavfni oldindan aniqlashga asoslangan boshqaruv tizimiga o'tkazishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin [13].

Mazkur platformaning eng muhim jihati —u huquqbuzarlik va jinoyatni alohida sodir bo'lgan fakt sifatida emas, balki shaxs, makon, vaqt, ijtimoiy muhit, infratuzilma va profilaktika faoliyati bilan uzviy bog'liq tizimli hodisa sifatida tahlil qilishga imkon beradi. An'anaviy profilaktikada ayrim hollarda huquqbuzarlik sodir etilganidan keyin uning sabablari o'rganiladi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqiladi. Sun'iy intellekt asosidagi yondashuv esa bunday sabab va sharoitlarni oldindan aniqlashga intiladi. Bu esa profilaktika ishlarini kechikkan ta'sir choralaridan barvaqt ogohlantirish va oldini olish mexanizmiga aylantiradi.

Shu bilan birga, "Criminology AI" platformasining samaradorligi, birinchi navbatda, ma'lumotlar sifati bilan belgilanadi. Agar tizimga kiritilayotgan ma'lumotlar to'liq, ishonchli, yangilangan va yagona formatga keltirilgan bo'lmasa, eng ilg'or algoritm ham noto'g'ri yoki noaniq xulosa berishi mumkin. Shu sababli platformani yaratishda jinoyat va huquqbuzarliklar statistikasi, jinoyatchilikka oid hisobotlar, hududiy kriminogen vaziyat, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar, mahalla ma'lumotlari, infratuzilmaviy omillar hamda sud-tergov hujjatlari bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish zarur [14].

Platformani amaliyotga joriy etishda yana bir muhim masala – algoritmik noxolislik xavfi. Sun'iy intellekt tizimi noto'g'ri yoki bir tomonlama ma'lumotlar asosida o'qitilsa, ayrim hududlar, ijtimoiy guruhlar yoki shaxslar toifasiga nisbatan noxolis xulosa chiqarishi mumkin. Shu sababli "Criminology AI"da xavfni baholash mexanizmi adolat, qonuniylik va inson huquqlariga hurmat tamoyillariga qat'iy asoslanishi kerak. Platforma hech qanday holatda shaxsni avtomatik tarzda "huquqbuzarlikka moyil" yoki "jinoyat sodir etuvchi" sifatida belgilamasligi lozim.

"Criminology AI" platformasining milliy xususiyati ham alohida e'tiborga loyiq. Xorijiy sun'iy intellekt tizimlari ma'lum davlatlarning huquqni muhofaza qilish modeli, ijtimoiy tuzilmasi va ma'lumotlar bazasiga mos ishlab chiqilgan. Ularni O'zbekiston sharoitiga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Chunki O'zbekistonda mahalla instituti, profilaktika inspektorlari faoliyati, oilaviy-maishiy munosabatlar, yoshlar bilan ishlash tizimi, hududiy demografik farqlar va jamoatchilik nazorati o'ziga xos ahamiyatga ega. Shuning uchun milliy platforma aynan O'zbekistonning huquqiy, ijtimoiy va kriminologik real ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqilishi zarur.

Amaliy jihatdan platformaning muvaffaqiyati uning foydalanuvchilar uchun qanchalik qulay va tushunarli bo'lishiga ham bog'liq. Profilaktika inspektori yoki hududiy rahbar murakkab algoritmik jarayonlarni emas, balki aniq xavf signallari, hududiy xarita, tavsiya etilgan choralar va kutilayotgan natijalarni ko'ra olishi kerak [15]. Demak, "Criminology AI" texnologik jihatdan murakkab bo'lsa-da, foydalanuvchi interfeysi sodda, amaliy va qaror qabul qilishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Umuman olganda, muhokama natijalari "Criminology AI" platformasining huquqbuzarliklarni oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda katta salohiyatga ega ekanini

ko'rsatadi. Biroq ushbu salohiyat faqat texnologik imkoniyatlar bilan emas, balki ma'lumotlar sifati, huquqiy kafolatlar, etik mezonlar, milliy sharoitga moslashuv, foydalanuvchi tayyorgarligi va institutsional hamkorlik bilan belgilanadi. Shu bois platformani ishlab chiqish va joriy etish jarayoni kompleks, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan tarzda olib borilishi lozim.

Shunday qilib, "Criminology AI" milliy sun'iy intellekt platformasi O'zbekiston sharoitida huquqbuzarliklar profilaktikasini modernizatsiya qilish, jamoat xavfsizligini ta'minlashda ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni rivojlantirish va kriminogen xavflarni barvaqt aniqlashga xizmat qiluvchi muhim innovatsion vosita sifatida baholanishi mumkin. Uning to'g'ri, qonuniy va etik talablarga mos joriy etilishi mamlakatda xavfsiz ijtimoiy muhitni mustahkamlash, profilaktika subyektlari faoliyatini samarali tashkil etish va kriminologik tadqiqotlarning amaliy natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda milliy sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish O'zbekiston sharoitida nafaqat texnologik yangilik, balki profilaktika tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy zarurat hisoblanadi. Bugungi kunda huquqbuzarliklarning shakli, sodir etilish usullari, hududiy tarqalishi va ijtimoiy xavfilik darajasi tez o'zgarib borayotgani profilaktika faoliyatida an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, raqamli tahlil, prognozlash va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishni talab etmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, "Criminology AI" milliy sun'iy intellekt platformasi huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatlarning sabab va sharoitlarini aniqlash, kriminogen xavf omillarini baholash, hududiy xavf xaritalarini shakllantirish, huquqbuzarliklar tendensiyasini prognoz qilish va profilaktik chora-tadbirlarni manzilli belgilashga xizmat qiluvchi istiqbolli intellektual tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Maqola doirasida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarni ilgari surish mumkin:

birinchidan, huquqbuzarliklarni oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish zarur. Bunda jinoyat va huquqbuzarliklar statistikasi, mahalla darajasidagi kriminogen vaziyat, ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar, infratuzilmaviy omillar, profilaktika tadbirlari natijalari va boshqa axborotlar yagona tahliliy tizimda jamlanishi lozim;

ikkinchidan, "Criminology AI" platformasi huquqbuzarliklar profilaktikasida xavf omillarini barvaqt aniqlash, kriminogen hududlarni belgilash, jamoat joylaridagi xavfsizlik holatini baholash va profilaktika kuchlarini oqilona taqsimlash imkonini beruvchi milliy raqamli-intellektual vosita sifatida qaralishi kerak;

uchinchidan, "Criminology AI" platformasini amaliyotga joriy etishda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash, algoritmik noxolislikning oldini olish, inson huquqlari va qonuniylik prinsiplariga qat'iy rioya etish muhim shart hisoblanadi;

to'rtinchidan, platformaning samaradorligini oshirish uchun uni pilot hududlarda sinovdan o'tkazish, sun'iy intellekt tavsiyalari asosida amalga oshirilgan profilaktika tadbirlarining natijalarini baholash, ekspertlar xulosasi asosida algoritmlarni takomillashtirish va foydalanuvchilar uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqish zarur;

beshinchidan, "Criminology AI" O'zbekistonda raqamli kriminologiya, kriminologik prognoz, hududiy xavf xaritalari, profilaktika samaradorligini baholash va jamoat xavfsizligini ta'minlashda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategik loyiha sifatida baholanishi mumkin.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, milliy sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish O'zbekistonning huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini zamonaviy, tezkor, manzilli va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv modeliga aylantirish imkonini beradi. "Criminology AI" platformasi esa ushbu jarayonda muhim ilmiy-amaliy yechim bo'lib, jamoat xavfsizligini ta'minlash, xavfli hududlarni barvaqt aniqlash, profilaktika subyektlari faoliyatini tahliliy qo'llab-quvvatlash va xavfsiz ijtimoiy muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur platformani ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish mamlakatda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini raqamli transformatsiya qilishning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar / References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-yanvardagi PF-10-son farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6755597>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-yanvardagi PQ-22-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6755253>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kriminologik faoliyatni ilmiy ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 24-iyuldagi 445-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-7034904>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-7158604>.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2025–2026-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 10-iyuldagi 425-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-7621993>.
6. National Institute of Justice. Artificial Intelligence [Elektron resurs]. – Washington, D.C.: National Institute of Justice. – URL: <https://nij.ojp.gov/topics/artificial-intelligence>.
7. National Institute of Justice. Overview of Predictive Policing [Elektron resurs]. – Washington, D.C.: National Institute of Justice. – URL: <https://nij.ojp.gov/topics/articles/overview-predictive-policing>.
8. Perry W.L., McInnis B., Price C.C., Smith S.C., Hollywood J.S. Predictive Policing: The Role of Crime Forecasting in Law Enforcement Operations. – Santa Monica: RAND Corporation, 2013. –186 p.
9. Mohler G.O., Short M.B., Brantingham P.J., Schoenberg F.P., Tita G.E. Randomized Controlled Field Trials of Predictive Policing // Journal of the American Statistical Association. –2015. –Vol. 110, № 512. –P. 1399–1411.
10. Ratcliffe J.H. Intelligence-Led Policing. –2nd ed. –London; New York: Routledge, 2016. –234 p.
11. Ferguson A.G. The Rise of Big Data Policing: Surveillance, Race, and the Future of Law Enforcement. –New York: New York University Press, 2017. –272 p.
12. Barocas S., Hardt M., Narayanan A. Fairness and Machine Learning: Limitations and Opportunities. –Cambridge: MIT Press, 2023. –368 p.
13. Mehrabi N., Morstatter F., Saxena N., Lerman K., Galstyan A. A Survey on Bias and Fairness in Machine Learning // ACM Computing Surveys. –2021. –Vol. 54, № 6. –Article 115. –P. 1–35.
14. European Union Agency for Fundamental Rights. Facial Recognition Technology: Fundamental Rights Considerations in the Context of Law Enforcement. –Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2019. –32 p.
15. United Nations Office on Drugs and Crime. Handbook on the Crime Prevention Guidelines: Making Them Work. –New York: United Nations, 2010. –128 p.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH VA UNING OLDINI OLISHDA “MAHALLA YETTILIGI” TIZIMINING KRIMINOLOGIK AHAMIYATI



Kaxarova Munira Maxamadjanovna

O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot instituti,
siyosiy fanlar doktori

Исследовательский институт
криминологии Республики
Узбекистан, доктор
политических наук

Research Institute of
Criminology of the Republic of
Uzbekistan, Doctor of Political
Sciences

Annotatsiya. Maqolada fuqarolik jamiyatining eng quyi bo'g'ini hisoblangan mahalla instituti tizimida, xususan, "mahalla yettiligi" faoliyatida korruptsiyaga qarshi kurashish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish va raqamli transformatsiya jarayonlari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda R. Klitgardning korruptsiya modeliga tayangan holda, "Onlayn mahalla" va "Elektron profilaktika" platformalarining inson omilini va byurokratik to'siqlarni kamaytirishdagi roli baholangan. Mahalla darajasida ichki korruptsiyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida antikorrupsion komplayens-nazorat, blokcheyn texnologiyasi va samaradorlikning raqamli KPI indikatorlarini joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: "mahalla yettiligi", korruptsiyaga qarshi kurash, raqamlashtirish, "Digital Mahalla", huquqiy madaniyat, komplayens-nazorat, KPI indikatorlari, blokcheyn, R. Klitgard, shaffoflik, jamoatchiliknazorati.

CRIMINAL SIGNIFICANCE OF THE “MAHALLA SEVEN” SYSTEM IN FIGHTING AND PREVENTING CORRUPTION

Abstract. The article provides a systematic analysis of the processes of combating corruption, raising the legal culture of the population, and digital transformation within the system of the mahalla institution, specifically focusing on the activities of the "mahalla seven" as the grassroots level of civil society. Drawing on R. Klitgaard's corruption model, the study evaluates the role of digital platforms such as "Online Mahalla", and "E-Profilaktika" in minimizing the human factor and bureaucratic barriers. Scientific and practical proposals and recommendations have been developed for implementing anti-corruption compliance control, blockchain technologies, and digital key performance indicators (KPIs) to ensure internal corruption resilience at the mahalla level.

Keywords: Mahalla Seven, anti-corruption, digitalization, Digital Mahalla, legal culture, compliance control, KPI indicators, blockchain, R. Klitgaard, transparency, public control.

Jamiyatning siyosiy va iqtisodiy barqarorligiga tahdid soluvchi eng xavfli illatlardan biri bo'lgan korruptsiyaga qarshi kurashish bugungi kunda nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki keng jamoatchilik, jumladan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ham asosiy vazifasi va maqsadiga aylanmoqda. Hozirgi kunda insoniyatning kelajagiga raxna solayotgani ushbu illatga qarshi global, mintaqaviy hamda alohida davlatlar miqyosida keng qamrovli va ko'p taraflama yondashuvlarga asoslangan holda kurash olib borilmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan mahallabay ishlash tizimining yangi bosqichi sifatida tashkil etilgan "mahalla yettiligi" bugungi kunda davlat va jamiyat o'rtasida